

**ANGREN KO'MIR KONI MISOLIDA BURG'ILASH QURULMALARINI ISH
UNUMDORLIGINI OSHIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10547051>

assistent **F.U.Isakulov**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Anotatsiya: *Hozirgi kunda Angren ko'mir koniga e'tibor alohida qaratilmoqda, sababi hozirgi kunda asosiy yoqilg'i manbasi sifatida, issiqlik manbasi, IESlarni yoqilg'isi sifatida, aholini istemoli uchun ko'mir ta'minotiga alohida e'tibor qaratilgan. Bunga misol qib 2023 yilda Prezidentimiz tashabusi bilan Angren ko'mir koni uchun 80 mln dollar miqdorida investitsiya kiritildi. Angren ko'mir konini hozirgi kunda yillik rejasini avvalgi yillardan mustasino ravishda 5800 ming tonna etib belgilandi va bu reja ortig'i bilan ya'ni 5828.9 ming tonna ko'mir qazib olindi. Bu ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida hozirgi kunda yangi texnika va tizimlar joriy etilmoqda hamda yangi ilmiy izlanishlar bu masalalar bo'yicha olib borilmoqda.*

Tayanch iboralar: *skvajina, ochiq kon, burg'ilash qurilmasi, ko'mir koni.*

Tog' jinslarini to'g'ridan-to'g'ri qazib olish imkoni bo'lmagan yoki ularni massivdan dastlabki yumshatmasdan ajratib olish va yumshatish qiyin bo'lgan hollarda portlatish ishlari qo'llaniladi.

Ochiq kon ishlarida qoyali tog' jinslari konlarida deyarli barcha kon ishlari tog' jinslarini portlatish usuli bilan dastlabki yumshatish bilan amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida yuqori ish unmdorlikka ega bo'lgan burg'ulash texnikasini qo'llashni talab etadi. Konning kon-geologik sharoitlari, masshtabi, qazib olish tizimi parametrlari va tog' jinslarining fizika-mexanik xususiyatlari burg'ulash dastgohini tanlashga ta'sir etadi. Tog' jinslarining fizika-mexanik xususiyatlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun portlovchi skvajinalarni burg'ulashda bir-biridan skvajina kovjoyiga ta'siri xususiyati bo'yicha farq qiluvchi turli turdagi burg'ulash dastgohlari qo'llaniladi.


Angren ko'mir koni- Toshkent viloyati Ohangaron vodiysidagi qo'ng'ir ko'mir koni. Qurama va Chatqol tog'lari etagida. Geologik kon qidiruv ishlari 1934-yil.dan boshlangan. Dastlabki shaxta 1940-yilda ishga tushirilgan. Ko'mirli havzaning maydoni qariyb 70 km². Aniqlangan zaxirasi 860 m chuqurlikkacha 1,9 mlrd. t (O'rta Osiyodagi barcha ko'mir zaxirasining qariyb 1/4 qismi). Ko'mir yura yotqiziqlari orasida joylashgan, qatlami juda qalin, qalinligi yer yuzasida 20 m dan chuqurlikda 130 m gacha. Ko'mir B2 markasiga mansub. Yonish issiqligi 13,9 MJ/kg. Ko'mir asosan ochiq usulda (5 mln. t), qisman yer ostidan (0,5 mln. t) qazib olinadi. Bundan tashkari „Yerosti gaz“ stansiyasida ko'mir gazga aylantirilib, yiliga 50 mln. m³ gaz ishlab chiqariladi. Ko'mir bilan birga kaolin ham qazib olinadi. Qatlamlar orasida portlandsement, flyus, burt hamda kanalizatsiya quvurlari ishlab

chiqarish uchun xom ashyo bo'ladigan jinslar ko'p. Hozirgi vaqtda angren ko'mir koni tarkibida 3 ta SBSH-250MNA markali, hamda 2 ta xitoy burg'ilash texnikasi DXA-165, 1 ta BTS-150 dizelli burg'ilash qurmasi mavjud. Angren ko'mir konida burg'ilash portlatish ishlari asosan 1-blok, 3-blok, neogen davri jinslari hamda kaolin qazib olishda amalga oshiriladi. SBSH-250 burg'ilash texnikasini smenalik unumdorligi 120-150 pagona metr bo'lib, 1 ta skvajina chuqurligi 15 metr diametri 244-269,9 mm gacha ya'ni 2 ta shtangadan burg'ilaydi.

Burg'ilash qurulmasini ish unumdorligini oshirish uchun texnikani burg'ilashga tayyorlanish vaqtini qisqartirish orqali ish unumdorligini oshirish mumkin. Bunda texnika burg'ilashdan oldin 3 ta damkiratni qo'yishdagi vaqtni qisqartirish orqali erishishiladi. Burg'ilash texnikasini kov joyi tekisligini hisobga olgan holda uchala damkiratni yarim tushirish orqali texnikani gorizontalligini taminlash hamda burg'ilash vaqtida harakatlanib ketish oldi olinsa bo'ldi. Bu bilan tayyorlanish sikli minimal 15 daqiqa bo'lsa damkralarni yarim qo'yish orqali bu vaqtni 10-7 daqiqagacha qisqartirish mumkin(1-jadval). Natijada ish unumdorligini o'zgarishini quyida diagrammada ko'rish mumkin. Bu diagrammadagi ko'rsatkichlar asosan qish-yoz fasillari inobatga olingan holda ish unumdorligi hisoblab chiqilgan.

1-jadval

	15 daq sikl	10 daq sikl	7 daq sikl
1-kvartal	6000	7125	8250
2-kvartal	7500	7875	9000
3-kvartal	7650	8250	9000
4-kvartal	6375	7875	8625



Bitta burg'ilash qurilmasi smenasiga qishda yog'ingarchilik oylarida 120 pagona metr bo'sa yozda quruq kov joylarda esa 150 pagona metrgacha oshirish mumkin. Agar sikldagi vaqtni 5 daqiqaga qisqartirsak smenasiga 150 pagona metrgacha oshirishimiz mumkin. 8 daqiqaga qisqartirsak smenasiga 165-180 pagona metrga yetkazish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. QAZILGAN BO'SHLIQNI TO'LDIRIB QAZISH TIZIMI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 1342-1344.
2. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. QAZISH TIZIMINI TANLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 204-206.
3. Erkaboyeva S. I., Nishanov A. I. YER OSTI KON ISHLARIDA QO'LLANILADIGAN QAZIB OLISH TIZIMLARIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH TADBIRLARI //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 10. – С. 102-106.
4. Гаибназаров Б. А., Алимов Ш. М., Эркабоева С. АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЙ ФОРМИРОВАНИЯ СКВАЖИННЫХ ЗАРЯДОВ С ПРИМЕНЕНИЕМ НЕВОДОУСТОЙЧИВЫХ ВВ ПРИ ДРОБЛЕНИИ ГОРНЫХ ПОРОД В ОБВОДНЕННЫХ УСЛОВИЯХ НА КАРЬЕРАХ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 168-179.
5. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли, Қулмонбетов Асадбек Юсуфали ўғли. КОНТУРНОЕ ВЗРЫВНИЕ ПРИ ПОДЗЕМНЫХ ГОРНЫХ РАБОТ. Журнал «Новости образования: исследование в XXI Том 1 № 4 (2022). <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1321>
6. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли. Напряженное Состояние Горного Массива И Факторы, Влияющие На Механические Свойства Горных Порода. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES 2022/6. 65-69 ст. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/612>
7. Zuxritdinov D. X. YER OSTIDA ISHLAYDIGAN KON ISHCHILARINING HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

- //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 549-552.
8. Davron Z. et al. SHAXTA SUVLARIDAN FOYDALANISHDA ENERYIGA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULI //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 11-14.
9. Zuxritdinov D. X., Nishanov A. I. KONCHILIK TRANSPORTLARIDA YONG‘INGA QARSHI YANGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 368-372.
10. Davron Z. et al. SHAXTA SUVLARIDAN FOYDALANISHDA ENERYIGA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULI //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 11-14.
11. Turg‘unov F. F., Abdiyev O. X. MA‘DANLI KARYERLARNING CHUQUR GORIZONTLARINI QAZIB OLIHDA MEXANIZATSIYALASH VOSITALARI VA TEXNOLOGIK O‘LCHAMLARINI ASOSLASH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 678-680.
12. Turg‘unov F. F. ANGREN RAZREZIDA QO‘LLANILAYOTGAN EKSKAVATOR CHO‘MICH I KESUVCHI ELEMENTLARINING ISHLASH MUDDATINI OSHIRISH //Uzbek Scholar Journal. – 2023. – T. 14. – C. 37-39.
13. Turg‘unov F. F., Nishanov A. I. RESPUBLIKAMIZDAGI KO ‘MIR KONLARI VA ULARNI QAZIB OLIHDA PORTLATISH ISHLARINI GIDROZABOYKALAR YORDAMIDA AMALGA OSHIRISH //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 33. – C. 168-173.
14. Maxmudjanovich X. T. et al. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIB OLIHDA BO‘SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 738-741.
15. Axbaraliyevich E. M. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIB OLIHDA BO‘SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH JARAYONINING BOSQICHLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 26. – C. 226-228.
16. Ergashev M. A., O‘ralboyeva D. F. YOSHLIK 1 KONIDA SKVAJINA ZARYADI KONSTRUKSIYASINING MAQBUL TURINI TANLASH VA ASOSLASH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 668-670.
17. Axbaraliyevich E. M. et al. YOSHLIK 1 KONI SHAROITIDA PORTLATISH ISHLARINI SAMARALI OLIB BOORISH UCHUN PORTLOVCHI MODDANING MAQBUL TURINI TANLASH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 126-128.
18. Axbaraliyevich E. M. et al. KONCHILIK SOXASIDA ISHLAB CHIQRISH SANITARIYASI TALABLARI //XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA‘LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 63-67.

19. Axbaraliyevich E. M. et al. FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISHGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 839-842.
20. Шамаев М. К. и др. ИЗВЕСТНЯК В ПРИРОДЕ, ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА И НЕКОТОРЫЕ ИХ СВОЙСТВА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ //ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 26-30.
21. Toshtemirov U. T. Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning ba'zi bir jihatlari //Scienceweb academic papers collection. – 2018.
22. Ахмадов А. У., Мельникова Т. Е., Тоштемиров У. Т. АНАЛИЗ МИКРОКЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ КАРЬЕРА КАЛЬМАКЫР //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1207-1216.
23. Носиров У. Ф., Усмонова Х. С. К. НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ НА БОЛЬШИХ ВЫСОТАХ В УСЛОВИЯХ КАЛЬМАКЫР КОНИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 364-368.
24. Хайитов О. Г., Худайназаров Т. М., Эргашев М. А. ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ УЧАСТКИ ФИЛИАЛА «РАЗРЕЗ АНГРЕНСКИЙ» //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 119-127.
25. Axbaraliyevich E. M. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIB OLISHDAN BO'SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH JARAYONINING BOSQICHLARI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 26. – С. 226-228.
26. Ergashev M. A., O'ralboyeva D. F. YOSHLIK 1 KONIDA SKVAJINA ZARYADI KONSTRUKSIYASINING MAQBUL TURINI TANLASH VA ASOSLASH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 668-670.
27. Алимов Ш. М., Эргашев М. А., Ўралбоева Д. Ф. МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ ГОРНЫХ ПОРОД //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 625-627.
28. Axbaraliyevich E. M. et al. YOSHLIK 1 KONI SHAROITIDA PORTLATISH ISHLARINI SAMARALI OLIV BOORISH UCHUN PORTLOVCHI MODDANING MAQBUL TURINI TANLASH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 126-128.
29. Axbaraliyevich E. M. et al. KONCHILIK SOXASIDA ISHLAB CHIQRISH SANITARIYASI TALABLARI //XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 63-67.
30. Axbaraliyevich E. M. et al. FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISHGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 839-842.